



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

Xalqaro ilmiy jurnal

2026 №1  
(10)

SAMARQAND – 2026

p-ISSN 2992-9229

e-ISSN 3060-5318



# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIY JURNALI


“TURKOLOGICAL RESEARCH” INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
JOURNAL

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”



Jurnal rasmiy sayti: <https://turkologiya.samdu.uz/>



SAMARQAND – 2026



## “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

<b>Bosh muharrir:</b>	<b>Bosh muharrir o‘rinbosari:</b>
<b>Juliboy ELTAZAROV</b> <i>f.f.d., professor (O‘zbekiston)</i>	<b>Roxila RUZMANOVA</b> <i>f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)</i>
<b>TAHRIRIYAT KENGASHI:</b>	
<p><b>Rustam XALMURADOV</b> – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Hakim XUSHVAQTOV</b> – f.m.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Akmal AHATOV</b> – t.f.d., professor, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori (O‘zbekiston);</p> <p><b>Muslihiddin MUHIDDINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ibodulla MIRZAYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Shuhrat SIROJIDDINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Suyun KARIMOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Murodqosim ABDIYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Azamat PARDAYEV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Musa YULDASHEV</b> – f.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilfuza DJURAKULOVA</b> – t.f.n., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Aftondil ERKINOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Qosimjon SODIQOV</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Muhabbat QURBONOVA</b> – f.f.d., professor (O‘zbekiston);</p>	<p><b>Ali AKAR</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Abduselam ARVAS</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Funda TOPRAK</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Musa Shamil YUKSEL</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Temur KOJAO‘G‘LI</b> – f.f.d., professor (AQSH);</p> <p><b>Hayrunnisa ALAN</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Varis CHAKAN</b> – f.f.d., professor (Turkiya);</p> <p><b>Elchin IBROHIMOV</b> – f.f.d., professor (Ozarbayjon);</p> <p><b>Emrah YILMAZ</b> – Phd, dotsent (Turkiya);</p> <p><b>Foziljon SHUKUROV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilshod XURSANOV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Shahnoza XUSHMURODOVA</b> – DSc, professor (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dinara ISLAMOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Feruza JUMANIYAZOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Istoda RASULOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Dilorom MUMINOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Zarifa XUSANOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ahmadjon MAVLONOV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ilyos JO‘RAYEV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Ibodullo ZUBAYDULLAYEV</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Bahora YUNUSOVA</b> – Phd, dotsent (O‘zbekiston);</p> <p><b>Feruza MANUKYAN</b> – Phd (O‘zbekiston);</p> <p>Mas’ul muharrir: <b>PhD, dotsent Zokir BAYNAZAROV</b> (O‘zbekiston);</p> <p>Texnik xodim: <b>Raxmatulla SHOKIROV</b> (O‘zbekiston).</p>



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

<b>Главный редактор:</b>	<b>Заместитель главного редактора:</b>
<b>Жулибой ЭЛТАЗАРОВ</b> <i>д.ф.н., профессор (Узбекистан)</i>	<b>Рохила РУЗМАНОВА</b> <i>к.ф.н., доцент (Узбекистан)</i>
<b>РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:</b>	
<p><b>Рустам ХАЛМУРАДОВ</b> – д.т.н., профессор, ректор Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);</p> <p><b>Хаким ХУШВАКТОВ</b> – д.ф.м.н., профессор, проректор по научной работе и инновациям Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);</p> <p><b>Акмал АХАТОВ</b> – д.т.н., профессор, проректор по международному сотрудничеству Самаркандского государственного университета имени Ш.Рашидова (Узбекистан);</p> <p><b>Муслихиддин МУХИДДИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Ибодулла МИРЗАЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Шухрат СИРОЖИДДИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Суюн КАРИМОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Муродкасым АБДИЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Азамат ПАРДАЕВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Муса ЮЛДАШЕВ</b> – к.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Дилфуза ДЖУРАКУЛОВА</b> – к.и.н., доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Афтондил ЭРКИНОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Касимжон СОДИКОВ</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Мухаббат КУРБАНОВА</b> – д.ф.н., профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Али АКАР</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p>	<p><b>Абдуселам АРВАС</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p> <p><b>Фунда ТОПРАК</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p> <p><b>Муса Шамиль ЮКСЕЛЬ</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p> <p><b>Темур КОДЖАОГЛУ</b> – д.ф.н., профессор (США);</p> <p><b>Хайрунниса АЛАН</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p> <p><b>Варис ЧАКАН</b> – д.ф.н., профессор (Турция);</p> <p><b>Эльчин ИБРАГИМОВ</b> – д.ф.н., профессор (Азербайджан).</p> <p><b>Эмрах ЙИЛМАЗ</b> – PhD, доцент (Турция);</p> <p><b>Фозилжон ШУКУРОВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Дилшод ХУРСАНОВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Шахноза ХУШМУРОДОВА</b> – DSc, профессор (Узбекистан);</p> <p><b>Динара ИСЛАМОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Феруза ДЖУМАНИЯЗОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Истода РАСУЛОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Дилором МУМИНОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Зарифа ХУСАНОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Ахмаджон МАВЛОНОВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Илёс ЖУРАЕВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Иболулло ЗУБАЙДУЛЛАЕВ</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Бахора ЮНУСОВА</b> – PhD, доцент (Узбекистан);</p> <p><b>Феруза МАНУКЯН</b> – Phd (Узбекистан);</p> <p>Ответственный редактор: <b>PhD, доцент Зокир БАЙНАЗАРОВ (Узбекистан)</b></p> <p>Технический персонал: <b>Рахматулла ШОКИРОВ (Узбекистан)</b></p>



# “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO ILMIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL RESEARCH”  
ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSSEL DERGİSİ  
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ”

**Chief Editor:/ Deputy Chief Editor:**

**Baş Editör:/ Baş Editör Yardımcısı:**

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Uzbekistan)*  
*Ass. Prof. Dr. Rokhila RUZMANOVA (Uzbekistan)*

*Prof. Dr. Juliboy ELTAZAROV (Özbekistan)*  
*Doç. Dr. Rohila RUZMANOVA (Özbekistan)*

## EDITORIAL TEAM:/ BİLİM KURULU:

*Prof. Dr. Rustam KHALMURADOV* – Rector of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Hakim KHUSHVAKTOV* – Vice-Rector for Research and Innovation, Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Akmal AKHATOV* – Vice-Rector for International Cooperation of Samarkand State University named after Sh.Rashidov (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Muslihiddin MUKHIDDINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Ibodulla MIRZAEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Shukhrat SIROJIDDINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Suyun KARIMOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Murodkasim ABDIEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Azamat PARDAEV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Musa YULDASHEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. Dr. Dilfuza DJURAKULOVA* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Aftondil ERKINOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Kasimjon SODIKOV* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Uzbekistan);  
*Prof. Dr. Ali AKAR* (Turkey);  
*Prof. Dr. Abduselam ARVAS* (Turkey);  
*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Turkey);  
*Prof. Dr. Musa Shamil YUKSEL* (Turkey);  
*Prof. Dr. Temur KOJA OGLU* (USA);  
*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Turkey);  
*Prof. Dr. Varis CHAKAN* (Turkey);  
*Prof. Dr. Elchin IBRAHIMOV* (Azerbaijan);  
*Ass. Prof. PhD. Emrah YILMAZ* (Turkey);  
*Ass. Prof. PhD. Foziljon SHUKUROV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dilshod KHURSANOV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Shakhnoza KHUSHMURODOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dinara ISLAMOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Feruza JUMANIYAZOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Istoda RASULOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Dilorom MUMINOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Zarifa KHUSANOVA* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Akhmadjon MAVLONOV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Ilyos JURAYEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV* (Uzbekistan);  
*Ass. Prof. PhD. Bakhora YUNUSOVA* (Uzbekistan);  
*PhD. Feruza MANUKYAN* (Uzbekistan);  
Managing editor: *Ass. Prof. PhD. Zokir BAYNAZAROV* (Uzbekistan)  
Technical staff: *Rakhmatulla SHOKIROV* (Uzbekistan)

*Prof. Dr. Rustam HALMURADOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Rektörü (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Hakim HUŞVAKTOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Araştırma ve İnovasyondan Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Akmal AHATOV* – Ş.Raşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi Uluslararası İşbirliğinden Sorumlu Rektör Yardımcısı (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Muslihiddin MUHİDDİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. İbodulla MİRZAYEV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Şuhrat SİROCİDDİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Suyun KARİMOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Murodkasım ABDİYEY* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Azamat PARDAYEV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Musa YULDAŞEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilfuza CURAKULOVA* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Aftondil ERKİNOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Kasimcon SODİKOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Muhabbat KURBANOVA* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Ali AKAR* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Abdusalem ARVAS* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Funda TOPRAK* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Musa Şamil YÜKSEL* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Timur KOCAOĞLU* (ABD);  
*Prof. Dr. Hayrunnisa ALAN* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Varis ÇAKAN* (Türkiye);  
*Prof. Dr. Elçin İBRAHİMOV* (Azerbaycan);  
*Doç. Dr. Emrah YILMAZ* (Türkiye);  
*Doç. Dr. Fozilcon ŞUKUROV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilşod HURSAVOV* (Özbekistan);  
*Prof. Dr. Şahnoza HUŞMURODOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dinara İSLAMOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Feruza CUMANIYAZOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Istoda RASULOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Dilorom MUMİNOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Zarifa HUSANOVA* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ahmadjon MAVLONOV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ilyos JÖRAYEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Ibodullo ZUBAYDULLAYEV* (Özbekistan);  
*Doç. Dr. Bahora YUNUSOVA* (Özbekistan);  
*Dr. Feruza MANUKYAN* (Özbekistan);  
Sorumlu Editör: *Doç., Dr. Zokir BAYNAZAROV* (Özbekistan)  
Teknik Personel: *Rahmatullah ŞOKİROV* (Özbekistan)

MUNDARIJA | CONTENT | İÇERİK | СОДЕРЖАНИЕ  
BOKU QURULTOYINING 100 YILLIGI

<b>Inomjon AZIMOV</b>	
I-Turkologiya qurultoyida yozuv masalasi.....	8
<b>МАРАЗЫКОВ Турусбек Сейдакматович</b>	
Бир тутумдуу жөнөкөй сүйлөмдөрдү классификациялоодо айрым бир маселелер.....	17
<b>Elçin İBRAHİMOV</b>	
Birinci Türkoloji qurultayda əlifba müzakirələri .....	27
<b>Jo'ra Ochilovich XUDOYBERDIYEV</b>	
Rossiyada turkologiya qurultoyini chaqirishga qilingan harakatlar .....	48
<b>Emrah YILMAZ</b>	
Türkiye'de Türkoloji'nin tarihsel seyri ve akademik inşası.....	62
<b>Hezretgulı DURDIYEV, Kasım GAYİPOV</b>	
Latin alfabesine geçiş sürecinde Birinci Türkoloji Kurultayı'nın stratejik rolü.....	82
<b>TURKOLOG OLIMLAR HAYOTI</b>	
<b>ЮЛДАШЕВ Мусо Мухаммадиевич, ЮЛДАШЕВА Дильшода Мусаевна</b>	
Игорь Валентинович Кормушин и его вклад в развитие тюркологии: исследовательское, организационное и международное измерения.....	90
<b>TURKIY TILLAR VA TILSHUNOSLIKKA OID TADQIQOTLAR</b>	
<b>Игорь Валентинович КОРМУШИН</b>	
О некоторых особенностях данных Махмуда Кашгари по тюркским диалектам XI в. ....	100
<b>СДОБНИКОВ Вадим Витальевич</b>	
Основные подходы к переводу священного корана на узбекский и русский языки .....	107
<b>ЗУБАЙДУЛЛАЕВ Ибодулло Амриллоевич</b>	
Роль тюркских языков как посредников в заимствовании исламской религиозной лексики в русский язык: исторический и лингвокультурологический аспекты.....	116
<b>Narbibiş ŞAMMAÿEWA</b>	
Frazeologik birlikleriñ sözlükde yerleşdirilişi.....	123
<b>XOLMANOVA Zulxumor Turdiyevna</b>	
Turkiy tillardagi lug'aviy birliklarning milliy tafakkurni aks ettirish va ma'lumot berish funksiyasi.....	130
<b>MAVLONOV Axmadjon Xoshimovich</b>	
Qipchoq shevasi leksikasining tarkibiy-mazmuniy tahlili.....	137
<b>Nuriddin Abdumannonovich ALTINBOYEV</b>	
Turk maqollarida zoonimlarning lingvomadaniy talqini: oila konsepti doirasida.....	148
<b>Shakhnoza KHUSHMURODOVA</b>	
The social nature of language and its role in shaping identity .....	156
<b>XUSANOVA Gulasal Shuhratjon qizi</b>	
Turli millat o'yinlari nomlarining etimologik tahlili .....	161
<b>ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK</b>	
<b>SALOHİY Dilorom Isomiddin qizi</b>	
“Boburnoma”da ayollar timsollari tadqiqi .....	167
<b>Ekrem Çulfa</b>	
21. yüzyılın Psikososyal ve pedagojik krizlerine karşı bir panzehir: Ali Şir Nevâî'nin “insan-ı kâmil” paradigması .....	178
<b>Akram Haydarovich TOSHPO'LATOV</b>	
Metamorfoza hodisasining badiiy-falsafiy ahamiyati .....	188
<b>Foziljon SHUKUROV</b>	
Isomiy Samarqandiyning “Futuh us-salotin” asarida Nizomiy dostonchilik an'alariga ergashish.....	197
<b>MUXITDINOVA Badiya Muslihiddinovna, AXMEDOVA Baxtigul Xaitmurot qizi</b>	
“Alpomish” dostoni va “Kitobi Dada Qo'rqut” asarida farzandsizlik motivi .....	205
<b>ЮСУПОВА Шохсанам Мирзали кизи</b>	
Прагматический анализ табуированных единиц в художественном тексте и методика интерпретации в полиэтнической аудитории.....	210
<b>TURKIY XALQLAR TARIXI</b>	
<b>Zhalgas AYT MURATOV, Janilsin AYT MURATOVA</b>	
İlk Karakalpak oyuncusu ve sanat emekçisi.....	217
<b>DAVRONOV Xolbek Zokir o'g'li</b>	
XVI asr ikkinchi yarmida Usmonli – Buxoro diplomatiyasi va unda Eron omili .....	225
<b>Shoira HAMDAMOVA</b>	
Samarqand viloyatida vaqf mulklarining boshqaruvi: Maxdumi Xorazmiy madrasasi vaqfnomasi tahlili .....	232



**AZIZ MUSHTARIY!**

*Jurnalimizning ushbu soni 100 yilligini nishonlayotganimiz Birinchi Boku Turkologiya qurultoyining tarixiy va ilmiy merosi, alifbo munozaralari hamda sohaning akademik shakllanishiga bag'ishlangan teran tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Maqolalarning asosiy mazmunini Mahmud Koshg'ariyning dialektologik ma'lumotlaridan tortib, Qur'oni Karimning o'zbek va rus tillaridagi tarjimalariga doir asosiy yondashuvlargacha, turkiy tillardagi leksik-semantik birliklarning milliy tafakkurni aks ettirish funksiyasidan madaniy o'zlikni shakllantirishdagi lisoniy omillargacha bo'lgan keng ko'lamli mavzular tashkil etadi. Shuningdek, rus tilidagi islomiy terminologiya shakllanishida turkiy tillarning vositachilik roli, maqollardagi zoonimlarning lingvokulturologik tahlili, frazeologik birliklarning leksikografik talqini va badiiy matnlardagi tabu birliklarning pragmatik tahlili kabi o'ziga xos mavzular fanlararo uslubda tadqiq etilgan. Alisher Navoiyning "Komil inson" paradigmasi, "Boburnoma"dagi ayollar timsollari, Alpomish va Qo'rqut ota kitobidagi mushtarak motivlar hamda Nizomiy dostonchilik an'analarining Futuhu's-Salotin asaridagi akslari sinchiklab o'rganilgan. Bundan tashqari, metamorfoza hodisasining falsafiy asoslari, XVI asr Usmonli–Buxoro diplomatiyasi, Samarqanddagi vaqf mulklari boshqaruvi va qoraqalpoq sahna san'atining ilk namoyandalari kabi sotsiomadaniy tadqiqotlar turkologiya sohasiga yangi ufqlarni ochib beradi. Tahrir hay'ati sifatida turkiy dunyoning til, tarix va san'at merosiga nur sochuvchi ushbu boy ilmiy xazinani sizlarga taqdim etayotganimizdan mamnunmiz.*

**TAHRIRIYAT**

**DEAR READER!**

*This issue of our journal brings together in-depth studies focusing on the historical and scientific legacy of the First Turkology Congress in Baku, of which we celebrate the 100th anniversary, along with alphabet discussions and the academic construction of the field. The core axis of the articles ranges from Mahmud al-Kashgari's dialectological data to the fundamental approaches in the translations of the Holy Quran into Uzbek and Russian; and from the function of lexical-semantic units in reflecting national thought in Turkic languages to linguistic factors in the shaping of cultural identity. Within this framework, unique topics such as the intermediary role of Turkic languages in the formation of Islamic terminology in Russian, the linguacultural analysis of zoonyms in proverbs, the lexicographical placement of phraseological units, and the pragmatic analysis of taboo expressions in literary texts have been examined through an interdisciplinary method. Ali Şîr Nevâî's "The Perfect Human" paradigm, female figures in the Baburnama, common motifs in Alpamysh and the Book of Dede Korkut, and the reflections of the Nizami poetic tradition in the work Fütûhü's-Selâtin have been meticulously analyzed. Furthermore, sociocultural studies such as the philosophical background of the metamorphosis phenomenon, 16th-century Ottoman–Bukhara diplomacy, the management of waqf properties in Samarkand, and the pioneers of Karakalpak performing arts open new windows for Turkology research. As the Editorial Board, we take great pride in presenting this rich heritage that sheds light on the linguistic, historical, and artistic legacy of the Turkic world.*

**EDITORIAL BOARD**

**SEVGİLİ OKUYUCU!**

*Dergimizin bu sayısı; 100. yılını idrak ettiğimiz Bakü Birinci Türkoloji Kurultayı'nın tarihsel ve bilimsel mirası, alfabe tartışmaları ve sahanın akademik inşası üzerine odaklanan derinlikli çalışmaları bir araya getirmektedir. Yazıların ana eksenini; Mahmut Kaşgarlı'nın diyalektolojik verilerinden Kur'an-ı Kerim'in Özbekçe ve Rusça tercümelerindeki temel yaklaşımlara, Türk lehçelerindeki leksik-semantik birimlerin milli tefekkürü yansıtma işlevinden kültürel kimliğin şekillenmesindeki dilsel faktörlere kadar geniş bir yelpaze oluşturmaktadır. Bu çerçevede; Türk dillerinin Rusçadaki İslami terminolojinin oluşumundaki aracı rolü, atasözlerindeki zoonimlerin lingvokültürel tahlili, frazeolojik birimlerin leksikografik yerleşimi ve edebî metinlerdeki tabu ifadelerin pragmatik analizi gibi özgün konular disiplinlerarası bir yöntemle incelenmiştir. Ali Şîr Nevâî'nin "İnsan-ı Kâmil" paradigması, Babürnâme'deki kadın timsalleri, Alpamyş ve Kitab-ı Dede Korkut'taki ortak motifler ile Nizâmî destancılık geleneğinin Fütûhü's-Selâtin eserindeki akisleri titizlikle irdelenmiştir. Ayrıca metamorfoz hadisesinin felsefi arka planı, XVI. yüzyıl Osmanlı-Buhara diplomasisi, Semerkant'taki vakıf yönetimi ve Karakalpak sahne sanatlarının öncü isimleri gibi sosyokültürel çalışmalar, Türkoloji araştırmalarına yeni pencereler açmaktadır. Yayın Kurulu olarak; Türk dünyasının dil, tarih ve sanat mirasına ışık tutan bu zengin birikimi sizlerle buluşturmanın kıvancını yaşıyoruz.*

**YAYIN KURULU**

**УВАЖАЕМЫЙ ЧИТАТЕЛЬ!**

*В данный номер журнала включены исследования, посвященные историческому и научному наследию Первого Бакинского тюркологического съезда, 100-летие которого мы празднуем в текущем году, дебатам об алфавите и академическому становлению тюркологии. В центре внимания — широкий спектр тем: от диалектологических сведений Махмуда Кашгари до основных подходов к переводам Корана на узбекский и русский языки, от функции отражения национального сознания лексико-семантических единиц в тюркских языках до языковых факторов лультурного самосознания. Кроме того, в междисциплинарном аспекте исследованы такие темы, как посредническая функция тюркских языков в формировании исламской терминологии в русском языке, лингвокультурологический анализ зоонимов в пословицах. В выпуске основательно изучены парадигма «Совершенного человека» Алишера Навои, женские образы «Бабур-наме», общие мотивы в поэме «Алпамыш» и «Книге моего деда Коркута», а также традиции поэмотворчества Низами в произведении «Футух ус-салатин». Философские основы явления метаморфозы, вопросы Османско-Бухарской дипломатии XVI века, вакуфного управления в Самарканде, исследование первых представителей каракалпакского сценического искусства и другие социокультурные исследования открывают новые горизонты в тюркологии. Редакционная коллегия рада представить вам это богатое наследие, освещающее язык, историю и искусство тюркского мира.*

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**ADABIY ALOQALAR, QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK**

**“BOBURNOMA” DA AYOLLAR TIMSOLLARI TADQIQI**

**SALOHIY Dilorom Isomiddin qizi,**

Samarqand davlat Chet tillar instituti  
Yaqin sharq tillari kafedrası professori, f.f.d.

(Samarqand, O‘zbekiston)

 **E-mail:** [dsalohiy@gmail.com](mailto:dsalohiy@gmail.com)

 **ORCID:** 0009-0008-3137-4933

 **DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19695538>

**Annotatsiya**

Maqolada sharq mumtoz adabiyoti o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida yangi va ilg‘or adabiy-estetik an‘analarga asoslanganligi haqida Zahiriddin Boburning “Boburnoma” asari misolida fikr yuritiladi. Ijtimoiy voqelikni teran ifodalash, unda inson hayotini va shaxsiyatini hech qanday mubolag‘alarsiz, to‘qimalarsiz aniq va ravshan aks ettirish “Boburnoma”ning tarixiy-adabiy asar sifatidagi o‘ziga xos badiiy-ilmiy qimmatini namoyon qiladi. Asarda xotin-qizlar ijtimoiy va madaniy-ma‘rifiy hayotiga daxldor umumbashariy qadriyatlar, umuminsoniy tuyg‘ular ifodasi o‘zining to‘laqonli va teran aksini topgan va bu muammoni tadqiq etish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Unda Boburshohning diniy e‘tiqodi, u ixlos qo‘ygan tarixiy shaxslar – onasi Qutlug‘ Nigorxonim, opasi Xonzodabegim, rafiqasi Mohimbegim va boshqa ayollar bilan muloqotlari, ayollar va ularning taqdirleri haqidagi fikrlari, xulosalari haqida so‘z yuritiladi. Kitobda bugungi kun o‘quvchisi qiziqishlari va talablari ham nazarda tutilgan holda ilmiy-tarixiy manbalardan ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Andijon, Samarqand, insoniy fazilatlar, sadoqat, sulola, sababiyat va oqibat, taqdir.*

---

**ИССЛЕДОВАНИЕ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В «БАБУР-НАМЕ»**

**Дилором САЛОХИ,**

д.ф.н., профессор кафедры ближневосточных языков  
Самаркандский государственный институт иностранных языков  
(Самарканд, Узбекистан)

**Аннотация**

В статье на примере произведения Захириддина Мухаммада Бабур “Бабур-наме” утверждается, что восточная классическая литература на всех этапах своего развития опиралась на новые и прогрессивные литературно-эстетические традиции. Уникальная художественно-научная ценность произведения как историко-литературного источника проявляется в глубоком отражении социальной действительности, правдивом и точном изображении человеческой жизни и личности без преувеличений и вымысла. В произведении полно и глубоко отражены универсальные ценности и общечеловеческие чувства, связанные с социальной, культурной и просветительской жизнью женщин, а изучение данной проблемы имеет важное научное и практическое значение. Также рассматриваются религиозные убеждения Бабур, его взаимоотношения с почитаемыми им историческими личностями — матерью Кутлуг Нигорхоним, сестрой Ханзодабегим, супругой Мохимбегим и другими женщинами, а также его взгляды и выводы о судьбах

женщин. В исследовании приведены сведения из научно-исторических источников с учетом интересов и требований современного читателя.

**Ключевые слова:** *Андижан, Самарканд, человеческие качества, верность, династия, причинно-следственная связь, судьба.*

---

## STUDY OF THE IMAGE OF A WOMAN IN “BABURNAME”

**Dr. Dilorom SALOKHI,**

Professor of Department of Middle Eastern Languages of  
Samarkand State Institute of Foreign Languages  
(Samarkand, Uzbekistan)

### **Abstract**

The article argues that Eastern classical literature, at all stages of its development, has been grounded in new and progressive literary and aesthetic traditions, using Zahiriddin Muhammad Babur’s “Baburnama” as an example. The work’s unique artistic and scholarly value as a historical-literary source is demonstrated by its profound reflection of social reality, clearly and accurately portraying human life and personality without exaggeration or fabrication.

The expression of universal values and human emotions related to women’s social, cultural, and educational life is fully and deeply reflected in the work, and the study of this issue is of great scientific and practical significance. The article also examines Babur’s religious beliefs, his interactions with historical figures he respected—his mother, Qutlug Nigor Khanum; his sister, Khanzada Begum; his wife, Mohim Begum; and other women—and his views and conclusions about women and their destinies. The book also incorporates information from scientific and historical sources, taking into account the interests and demands of contemporary readers.

**Key words:** *Andijan, Samarkand, human virtues, loyalty, dynasty, causality and consequence, destiny.*

---

### **Kirish**

“Boburnoma” – qomusiy asar. Zahiriddin Muhammad Bobur – o‘z zamonasida amalda bo‘lgan deyarli barcha ilmlarning yetuk bilimdoni. Undagi ana shu bilimdonlik zarrama-zarra “Boburnoma” sahifalariga ko‘chgan. Shundan bo‘lsa kerak, bugunga qadar ushbu tarixiy-adabiy asar haqida turli yo‘nalishlarda yuzlab maqolalar, o‘nlab kitoblar, o‘ttizdan ortiq dissertatsiyalar yozilgan. Ammo hozirga qadar “Boburnoma” muallifining xotin-qizlarga munosabati alohida tadqiqot uchun asos qilib olingan emas. Filologiya fanlari doktori Shavkat Hayitov va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Xurshida Barotovanning “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” deb nomlangan monografiyasi “Boburnoma”da keng tasvir etilgan xotin-qizlar obrazi ifodasidagi o‘ziga xosliklar, g‘oyaviy-badiiy talqin xususiyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan.

### **Asosiy qism, tadqiq va tahlil**

Monografiyaning birinchi bobi “Boburnoma”da ona obrazi” deb nomlangan va uch fasldan iborat. “Boburnoma”ni sinchiklab o‘rgangan mualliflar Bobur Mirzo aqlli va tadbirli ayol sifatida, eng avvalo, katta onasi (buvisi), mo‘g‘ul hukmdori Yunusxonning ayoli Esandavlat Begim shaxsiga yuksak ehtirom ko‘rsatganligini alohida qayd qiladilar va o‘z tadqiqotlarining dastlabki faslini Esandavlat Begim shaxsiyatini atroflicha o‘rganishga bag‘ishlaydilar. Oqila, dono va mehribon Esandavlat Begimning avval mo‘g‘ul ulusida, keyinchalik Farg‘ona davlatida saltanatni boshqarishda faol qatnashganligi monografiyada chuqur asoslab berilgan. Esandavlat Begim

timsolida davlat, oila, burch kabi yuksak ma'naviy qadriyatlar qadimiy milliy an'analar ruhida yoritilgan. Shuning uchun ham “Vaqoye”da talqin qilingan mazkur obrazning badiiy quvvati va ijtimoiy ta'sir kuchi g'oyatda baland ekanligiga mualliflar asosiy e'tiborni qaratadilar.

Esandavlat Begim mo'g'ul beklarining ulug' maqomga ega vakili Sher Hojibekning qizi bo'lgan. Yunusxon ibn Vaysxon mo'g'ul hukmdori qilib ko'tarilar ekan, Esandavlat Begimning mo'g'ul to'rasi bilan bir oq kiygiz ustiga o'tirishi to'la ma'noda unga shu mamlakatning bosh malikasi huquqini bergan. Mazkur tarixiy haqiqat “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasida xalqning milliy qiyofasi va timsoli sifatida chuqur tahlil qilingan.

Ulug' onaning ziyrakligi va siyosiy hushyorligi bois o'n ikki yoshida Farg'ona taxtiga o'tirgan Bobur davlatiga qarshi kurashga otlangan Hasan Ya'qub boshchiligidagi dushmanlar hamlasining barbod qilinishi nazardan o'tkazilar ekan, “Boburnoma”dan boshqa Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asari kabi e'timodli manbalar ham tahlilga tortilib, Esandavlat Begimning davlat boshqaruvi bilan bog'liq o'rni va faoliyatiga to'g'ri, aniq baho berilgan.

Bobning keyingi fasli “Chingiziy sanam obrazining boburona ifodasi” deb nomlanadi. Mualliflarning aniqlashlaricha, “Boburnoma”da eng ko'p tilga olingan xotin-qiz – Mirzo Boburning onasi Qutlug'nigor Xonimdir. Qutlug'nigor Xonim “Boburnoma”ning o'n olti o'rnida tilga olingan. Monografiyaning mazkur faslidan o'qiymiz: “Ruhiiy quvvat” ifodasini har kim o'zicha anglaydi, o'zicha tushunadi. Asli toza, tabiati beg'ubor odamgina munojot chashmasidan suv icha oladi. Yaqin kunlargacha biz bunday qudratli manba ustida fikr yuritish, ilmiy izlanish olib borish narida tursin, u haqda gapirish, muloqot qilish ham mumkin bo'lmagan bir hayot tarziga kirib qolgan edik”. [10;57]. Ruhoniy tabiatga ega bo'lib, kuchli ruhiy quvvatni namoyon qiluvchi Xudoga munojot ajdodlarimiz hayotida dalil-isbotlarsiz qo'llanib kelingani, e'tiqodi mustahkam, Allohning biru borligiga, qudratiga ishonchi komil, pokiza bandasining jon-jahdi bilan, astoydil so'ragan istagini Qodirul Quadrat bajo keltirishi ushbu monografiyada ilk marta tarixiy jarayon va Qutlug'nigor Xonim obrazi mantiqidan kelib chiqib, hayot haqiqati bilan mohirona uyg'unlashtirilganki, buni monografiyaning eng katta ilmiy yangiligi sifatida qayd etish zarur, deb o'ylayman. Monografiyadan o'qiymiz: “Valiahd o'g'li balog'at yoshiga yetib yetmay, eri fojiali ravishda hayotdan ko'z yumgan; ukasi va qaynakasi yurti ustiga qilich yalang'ochlab kelgan; podshoh o'g'lining, Vatanining, xalqining, o'zining, kekxa onai zorining hayoti qil ustida turgan bandasi Qutlug'nigor Xonimning iltijolarini, munojotini, O'ziga yukinib zorlanishlarini Parvardigor qabul qiladi... Haq subhanohu va taolo o'z komil qudrati bilan yosh hukmdorning ishini ko'ngildagidek, hech minnatsiz, hech qiynalmasdan, hech og'rinmasdan o'z vaqtida yuzaga chiqargan edi. Bunda Yaratuvchi bilan uning o'rtasida vosita - validasi Qutlug'nigor Xonim edi...” [10;54]

Mualliflar o'rinli ta'kid etganlaridek, Qutlug'nigor Xonim Bobur Mirzo hayotining fojialarga to'la aksariyat davrida o'g'li bilan birga bo'lgan. Birga bo'lmagan paytlarida ularni ko'rib, bilib, eshitib turgan. Temuriylar saltanatini saqlab qolishga ega shaxs sifatida o'g'liga umid ko'zlarini tikkan ona Andijon qal'asida qamalda qolib qanchalik iztirob chekkan bo'lsa, Samarqandda yetti oy davom etgan qamal holatida odamlarning ochlikdan “it etini, eshak etini yeyishga kirishgan”larini (Bobur) ko'rib, undan ham ko'proq azob tortgan.

Shayboniyxon birinchi marta Samarqandni zabt etganida Farg'ona malikasi Qutlug'nigor Xonimning bir ota va bir onadan tug'ilgan opasi, Samarqand malikasi, marhum Sulton Ahmad Mirzoning jufti haloli Mehrnigor Xonimni o'z nikohiga olgan. Ikkinchi marta Samarqandni

egallagach esa, Mehrnigor Xonimni taloq qo‘yib, sulh evaziga xolasining o‘rniga Qutlug‘nigor Xonimning yakkayu yolg‘iz, suyukli, bokira qizi Xonzodabegimni nikohlab oladi. Temuriy malikalar hayotidan olingan achchiq, murakkab, ziddiyatlarga to‘la mazkur tarixiy haqiqat mualliflar tomonidan Qutlug‘nigor Xonim obrazi bilan bog‘lab quyidagicha tahlil qilingan: “Sevimli qizining majburiyat ortida otasi tengi odamga o‘zini qurbon qilishi, tug‘ishgan opasining taloq qilinishi kabi malomatlarni ko‘tarish Qutlug‘nigor Xonim uchun oson bo‘lmagan. Oriyatli malika qizi oldida ham, opasi qarshisida ham o‘zini aybdor his qilgan” [10;66]. Qutlug‘nigor Xonimning nafaqat turkiy xalqlar adabiyotida, jahon adabiyoti tarixida mahorat bilan yaratilgan mumtoz ona obrazi ekanligi monografiyada tahlillar asosida chuqur yoritilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “Farzand kamolotida onaning o‘rni: Feruza Begim va Oqobegim” deb atalgan. Feruza Begim – Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning onasi. Jahongir Amir Temurning to‘ng‘ich qizi Og‘abegimning nevarasi. Zahiriddin Muhammad Bobur Feruzabegim va uning oqila qizi Oqobegim haqida o‘z umr kitobining 1505-1506 yil voqealari bayoniga bag‘ishlangan qismida “Valodat va nasabi” sarlavhasi ostidagi faslchada ma‘lumot beradi. Mualliflarning qat‘iy xulosasiga ko‘ra, “Vaqoye” muallifining o‘ziga xos tasvir uslubida, “Boburnoma” kompozitsiyasida g‘oyat muhim o‘rin tutgan “Valodat va nasabi”, “Avlodi”, “Xavotin va sarori” kabi ichki sarlavhalar tarixiy-adabiy asarda katta badiiy-emotsional vazifani bajaradi. O‘quvchini “Vaqoye”ga bo‘lgan qiziqishini orttirib, uni asarning g‘oyaviy-badiiy olamiga olib kiradi” [10;115]. Mulliflar o‘zlarining ushbu mulohazalarini taniqli fransuz olimi Ronal’d Bartning quyidagi nazariy mulohazalari bilan asoslaydilar: “Matn maydonidagi har bir sarlavha narrativ (qiziqitiruvchilik) mohiyatiga ega” [10;431].

Monografiyaning ushbu faslida favqulodda dovyurak, jasur, oqila ayol Feruza Begim o‘zidagi ezgu insoniy fazilatlarini, ezgu amallarni farzandlariga ham ko‘chira olganligi Oqobegim hamda uning Navoiy va Bobur muhabbatini qozongan o‘g‘li Kichik Mirzo obrazini keng tahlil qilish orqali ochib berilgan.

Zahriddin Muhammad Boburning Oqobegim obrazidagi insoniy go‘zalliklar talqinida Kichik Mirzo yordamchi obrazidan san‘atkorona foydalanganligi, shoh shoirning Kichik mirzo shaxsiyatiga munosabati buyuk Navoiy qarashlari bilan to‘la uyg‘un kelishi monografiyada mukammal asoslangan. Kichik Mirzoning dastlab davlat ishlarida sulton Husayn Boyqaroga yordam berib, keyinchalik rasmiy vazifalardan to‘la voz kechgani, asosiy vaqtini ilm olishga sarflagani, ko‘pgina fanlarni mustaqil mutolaa natijasida o‘zlashtirgani, o‘tkir zehni va kuchli hofizasi bilan Nuriddin Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahrori Valiy kabi avliyoullohlarning e‘tiborini tortganligi haqidagi tahlillar monografiyaning yuqori saviyada bo‘lishini ta‘minlagan. Jonajon Vatanimizning ta‘lim tizimida mustaqil ta‘lim masalasi davlat dasturi maqomida turgan bugungi kunda monografiyadagi Kichik Mirzo shaxsiyati talqiniga bag‘ishlangan sahifalar katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shavkat Hayitov va Xurshida Barotova kitobining ikkinchi bobi “Ayol ma‘rifati va futuvvati talqini” tarzida sarlavhalangan va to‘rt fasldan tarkib topgan. Bobning birinchi fasli “Javonmardlik haqiqatining Xonzodabegim timsolidagi in‘ikosi” deb nomlangan. Xonzoda Begim (1478-1544) – temuriy hukmdor Umarshayx Mirzoning (1456-1494) qizi. Bobur Mirzo Farg‘onaga podshoh bo‘lgan vaqtda Xonzoda Begim o‘n yettida, ayni balog‘at yoshida bo‘lgan. Monografiyada o‘rinli qayd qilinganidek, Qutlug‘ Nigorxonimning 1494 yildan umrining oxirigacha bo‘lgan hayot yo‘li 12 yoshli podshoh o‘g‘lining Haq subhanahu va taolo taqdiriga bitgan mashaqqatli taqdiri bilan qanchalik bog‘liq bo‘lsa, Xonzoda Begimning qismati ham podshoh ukasining Azal Kotibi taqdiriga bitgan yo‘l bilan shunchalik tutashgan. Monografiyadan

o‘qiyimiz: “Asl xilqatda sadaf ichidagi gavhar kabi aziz va pok Xonzoda Begimning “xon qiziga loyiq” (Abdulla Qodiriy ifodasi) yosh, navqiron yigitga qalliq bo‘lish orzusi son-sanoqsiz xotinlari, cho‘ri va kanizlari bor bo‘lgan, o‘z otasidan ham besh yosh katta, nabiralik cholning haramiga kirish bilan yakunlanadi. Bu Xonzoda Begim uchun ham, yakkayu yolg‘iz qizi orqali ulug‘ orzu-havaslar ko‘rish umidida yurgan Qutlug‘ Nigorxonim uchun ham kutilmagan bir hodisa edi. Bokira, husnu jamolda benazir temuriy malikaning beg‘ubor orzu-umidlari parchalanadi” [10;87]. Shayboniyxon Marv jangida o‘ldiriladi. Eron shohi Ismoil Safaviy Xonzodabegimni Boburning opasi ekanligini bilib, uni Mirzo Bobur yoniga kuzatadi. Bu haqda “Boburnoma”da berilgan quyidagi ma‘lumotlar muhim ilmiy qimmat kasb etadi: “Shoh Ismoil o‘zbekni Marvda bosqonda Xonzoda Begim Marvda edi. Mening jihatimdin yaxshi ko‘rub, andin uzatdilar. Qunduzga kelib menga qotildilar. Mufaroqot imtidodi o‘n yil bo‘lub erdi. Men va Muhammadiy ko‘kaldosh ikov kelduk, *begim va begimning yovug‘idag‘ilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytdim ham, muddatidan so‘ngra tanidilar*” [1;11-12]. Mazkur tarixiy lavha “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasida quyidagicha tahlil qilingan: “Boburnoma”dan ko‘chirilgan iqtibosning ajratib ko‘rsatilgan qismi istagan kitobxonni befarq qoldirmaydi. Hayajonga solib, eng ko‘ngli qattiq odamning ham yuragini ezadi. Opaning o‘z tug‘ishgan ukasini tanimasligi hayratlanarli va fojeali hodisa. Hokimiyat, toj-u taxt, mulkgirlik dag‘dag‘asi opani ukadan, onani qizidan ajratgan. Mirzo Boburning jozib yuragidan otilib chiqib, “Boburnoma” sahifalariga singgan faryod Xonzoda Begim taqdiriga, “o‘zi bila bir tuqqon” go‘zal opasining xazon bo‘lgan yoshligiga va o‘z taqdiriga achinish va hasrat nidosidan boshqa narsa emas” [10;9].

Ikkinchi bobning dastlabki faslida ko‘ngil ko‘zi futuvvat nuri bilan ravshan Xonzoda Begimning yetuk aql, mislsiz sabr sohibasi ekanligi, g‘oyat katta mardlik va jasorat bilan nafsoniy zulmatni tark etib, chinakam insoniy fitratni o‘z shaxsida nurlantira olganligi chuqur ilmiy asoslangan.

Monografiya ikkinchi bobining ikkinchi fasli “Mohim Begim ma‘rifati talqini” deb atalgan. Mazkur faslda mualliflar Xondamirning “Habib us-siyar” hamda Shayx Abu Fazl Allomiy (1551-1603)ning “Akbarнома” asaridagi boburiylar shajarasi, haram ahli, xotin-qizlar va ularning farzandlari haqidagi ma‘lumotlarga tayanib, Mohim Begim Sulton Husayn Boyqaroning ona tomondan qarindoshi ekanligi, Mohim obrazida ona shajarasiga xos keng fe‘l, azmu shijoat, tantilik, karam, zakiylik xislatlari mavjudligini chuqur tahlil qiladilar. Sulton Husayn Boyqaro shaxsiga jiddiy e‘tibor va ehtirom bilan qaragan Mirzo Bobur Mohim bilan turmush qurish orqali qarindoshlik munosabatlarining, shajaraviy aloqalarning mustahkamlanishini ko‘zlaganligi, shu bilan birga bu nikoh ortida turgan istiqbolning oydin kunlarini ilohiy bir ichki sezgi bilan his qilganligi monografiyada batafsil yoritilgan.

Monografiyada Bobur Mirzo qalbida Mohim Begim va uning farzandi Muhammad Humoyunga muhabbat davlat va davlatdorlik, mulkgirlik va mamlakatdorlikdan baland turganligi “Boburnoma”dagi “Tasadduq voqeasi”ni g‘oyaviy-badiiy tahlil qilish orqali mufassal yoritilgan.

“Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasining ikkinchi bobidan o‘rin berilgan “Mirzo Bobur va dehqon qizi” deb nomlangan uchinchi fasl BuxDu o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining mustaqil izlanuvchisi Gulshod Shoyimova bilan hamkorlikda yozilgan. Mazkur faslda Zahiriddin Muhammad Boburning dehqon qizi Bibi Muborikaga uylanish tarixi manbalar asosida teran yoritilgan. Dehqon va dehqonchilik madaniyatiga oid muhim ma‘lumotlar berilgan. Monografiyada yozilishicha, “Humoyunnoma” va boshqa ba‘zi manbalarda “Afg‘oniy og‘ocha” nomi bilan tilga olingan Bibi Muborika afg‘on

qabilalaridan Yusuf Zay deb atalgan urug' sardori Malikshoh Mansurning qizi bo'lgan. “Boburnoma”dan o'qiyimiz: “... yetti-sakkiz yilda (1519-1526) besh navbat Hindistonga cherik torttuk” [6;371]. Ana shu “avval navbat Behraga kelib”, Hindistonga qo'shin tortishdan burunroq Bobur Mirzo 1519 yilda Bibi Muborikaga uylangan. “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasining mualliflari Zahiriddin Muhammad Boburning Bibi Muborikaga uylanish tarixini Muhammad ibn Arab Qatag'onning “Musaxxir al-bilot” kitobiga tayanib quyidagicha sharhlaydilar: Bobur Kobul hududlarini, tog'lik aholining turmush tarzini ko'zdan kechirib yurardi. Shunday safarlarning birida u bir ziroatchi dehqon yoniga borib qoladi. Yer nihoyatda qaqshagan, ekinning ahvoli tang holatda edi. Haligi dehqon oilasi bilan yerni ko'zda suv tashib sug'oradi. Boburning ko'zi uning ko'zda suv tashib turgan qiziga tushib qoladi. Badaxshon va Qunduz, Kobul va Qandahor hukmdori bir ko'rishda dehqon qizini yoqtirib qoladi. Qizda ham Bobur Mirzoga nisbatan xeyle mayl paydo bo'ladi. So'ngra Bobur Mirzo qizni nikohiga olib, uning otasi Mansur Yusufzayga bir talay in'omlar ato etadi...

“Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasining “Mirzo Bobur va dehqon qizi” fasli ulug' davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning zahmatkash xalqqa – oddiy mehnat ahliga munosabatining nozik tomonlari xususida fikrimizni boyitadi. Mirzo Boburning darveshona tabiati, nafosatga to'la qalbi haqida tiniq tasavvur hosil qilishi bilan e'tiborni tortadi.

Ikkinchi bobning to'rtinchi fasli “Opoqbegim va Husayn Boyqaro” deb nomlanadi. Ushbu faslida Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining umr kitobi “Vaqoye”da sadoqatda benazir, bashariyat gulshanining eng kamyob, eng mahbub guli – “vafo royihasi” (Navoiy) bilan jismu joni, butun vujudi ziynatlangan ayollar obrazini mahorat bilan yaratganligi Opoqbegim obrazini tahlil qilish orqali chuqur asoslab berilgan. Opoqbegim timsoliga xos insoniy fazilatlarini yoritishda mualliflar “Boburnoma”dagi ma'lumotlarni G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Habibus-siyar” asaridagi ma'lumotlar bilan qiyosiy-tipologik tahlil qiladilarki, bunday usul juda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi va muhim nazariy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir asari mag'zidagi mavzuga aloqador ma'lumotlarning asalari gullar bag'ridagi nektarlardan misqollab to'plab bol bunyod qilgani kabi bir yerga yig'ilib, “Boburnoma”dagi malumotlar bilan yuzlashtirilishi chuqur tahlillar orqali husnu jamolda tengsiz, vafo va hayoda benazir Opoqbegim obraziga xos ma'naviy go'zalliklarni ochib berishga xizmat qilgan.

Monografiyaning uchinchi bobi “Tarixiy jarayonda malikalar va shoh haramidagi boshqa begimlarning o'rni” deb nomlangan va uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “Ayol sifati va nuqsining Bobur Mirzo qalamidagi talqini: Beka Sultonbegim, Shahribonubegim, Qutluq Begim, Hulhul Enaga” deb nomlangan. Kitobning yuqorida munosabat bildirilgan boblarida kuzatilgani kabi mualliflar mazkur faslni yozishda ham ko'p izlanganlar. Ayol shaxsiyati, ayol ma'naviyati bilan aloqador qadimiy manbalarda zikr qilingan teran mulohazalar Mirzo Bobur talqinlari bilan yuzlashtirilib, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari bilan aloqador dolzarb muammolarga ilm ahli e'tibori qaratilgan. Monografiyadan o'qiyimiz: “Ma'naviyatimizning qadimiy sarchashmasi “Avesto”da Ahuramazda tilidan quyidagi keskin fikrlar zikr qilingan: “Ey badkor xotin-kaxovariza, sen kadxudoni nazarga ilmay, unga itoatsiz bo'lding. Sen uning ishonchidan chiqding...” [10;12]. Eriga itoatsizlik qilib kibrlangan ayollar hamma zamonlarda ham qattiq qoralangan. Shunday ayollar obrazining ixcham talqini Zahiriddin Muhammad Bobur e'tiboridan ham soqit qolmagan”, – deyiladi monografiyada va ayni fikr Mirzo Boburning umr kitobidagi quyidagi mulohazalar bilan asoslanadi: “Avval olg'on xotuni Beka Sultonbegim erdi. Sanjar Mirzo

Mavriyning qizi erdi. Badiuzzamon Mirzo mundin tug‘ib erdi. Ko‘b kajxulq erdi. Sulton Husayn Mirzoni ko‘p og‘ritur erdi. Kajxulqlig‘idin Mirzo batang keldi. Oxiri qo‘ydi va xalos bo‘ldi. Ne qilsun haq Mirzo jonubi erdi” [6;14]. Husayn Boyqaro Abulqosim Bobur Mirzo vafotidan so‘ng Mashhaddan Hirotga kelganida Abulqosim Boburning eng ishonchli vaziri Sanjar Mirzo Mavriy o‘n to‘qqiz yoshli Husayn Boyqaroga o‘z taklifi bilan qizi Beka Sultonbegimni nikohlab beradi. “Vaqoye” muallifining talqinlaridan ayon bo‘ladiki, Beka Sultonbegim nihoyatda kibrli, o‘ziga bino qo‘ygan ayol bo‘lib, Sulton Husayn Mirzoni ko‘p ranjitgan.

Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaroning ko‘z ochib ko‘rgan zavjasi, Marv hukmdori Sanjar Mavriyning qizi Beka Sultonbegim haqida Alisher Navoiy zamonasining yirik tarixchisi G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir ham Mirzo Bobur qarashlariga uyg‘un mulohazalarni yozib qoldirgan ekan. Monografiyadan o‘qiymiz: “Marv hukmdorining qizi Beka Sultonbegimning chiroyli, xushsurat bo‘lsa-da, badfe‘l, itoatsiz, qizg‘anchiq ekanligini qayd etadi. Beka Sultonbegim o‘zining mashhur sanjariylar avlodiga mansubligi va Sultonning katta xotini ekanligini ro‘kach qilib, haram ahliga tichlik bermagan. Haramdagi kundoshlarining nasl-nasabini kamsitib, bir necha bor g‘umma va g‘unchachilar orasida fitna urug‘ini sepishga uringan. Sulton Husaynning haramidagi boshqa ayollar bilan samimiy yaqinligini ko‘rib qolsa, chayonday chaqib olib, zahar sochishdan, hatto Xuroson mamlakati podshosini mulzam qilishdan ham tap tortmagan” [10;140]. Tabiiyki, bunday qiyosiy tahlillar monografiyaning ilmiy saviyasini ko‘tarishga xizmat qilgan. “Boburnoma”dan olingan Sulton Husayn Boyqaroning oilaviy muhiti bilan mutanosib lavha ulug‘ fors-tojik shoiri Shayx Muslihiddin Sa‘diyning hasbu holiga daxldor quyidagi bayt bilan qiyosiy tahlil qilingan:

Zani bad dar saroyi mardi nako‘,  
Ham dar in olam ast do‘zaxi o‘.

Baytning mazmuni: Yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o‘zidayoq uning do‘zaxidir.

Mavzu taqozosiga binoan Sharq adabiyotining ulkan namoyandalari ijodidan keltirilgan bunday namunalar “Boburnoma” badiiyatini ko‘tarishda muhim ilmiy qimmat kasb etadiki, monografiyaning ibtidosidan intihosiga qadar bunday muhim dalillar mualliflar e‘tiboridan soqit qolmagan.

Monografiyaning mazkur faslida “Boburnoma”da qalamga olingan Beka Sultonbegim, Shahrbonubegim, Qutluq Begim, Hulxul Enaga obrazlarini alohida yonlanma sarlavhalar ostida tahlil qilish orqali diyonat va islomiyat ayol shaxsiyatida kuzatilmasa, oilaning barbod bo‘lishi chuqur dalillangan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Vaqoye”da Xadicha Begim va Zuhrabegi Og‘a shaxsiyati tasviri” tadqiqiga bag‘ishlangan. Mualliflar o‘rinli ta‘kid etganlaridek, boshqa xotin-qizlar obrazining yaratilishida kuzatilgani kabi “Vaqoye” muallifi Xadicha Begim va Zuhrabegi Og‘a timsollariga munosabatda ham o‘zining yomonlikni rad etish, yaxshilikni ulug‘lash konsepsiyasida qat‘iy turgan. Sulton Husayn Boyqaro saltanatida qudratli mavqega ega bo‘lgan Xadicha Begim obrazi “Boburnoma”da tarixan aniq, badiiy jihatdan mukammal yaratilganligi mualliflar tomonidan chuqur asoslab berilgan. Monografiyada yozilganidek, Sulton Husayn Boyqaro 37 yil hukmronlik qilgan saltanatning darz ketishida, og‘a-inilar o‘rtasiga nifoq solgan Xadichabegim va boshqa Sulton Husayn Mirzo haramidagi ayrim ayollarning hissasi kam bo‘lmagan. Ularning itoatsizligi, o‘zboshimchaligi, podshoh erining farmonlarini emas, xufyona tarzda o‘z nafi buyruqlarini bajarishi mamlakatning parokanda bo‘lishiga, davlatning parchalanishiga olib kelgan. Sulton Husayn Boyqaro asos solgan, salkam 40 yil yashagan qudratli

mamlakat tanazzulga yuz tutib, uning vafotidan keyin davlatchilik tarixida kuzatilmagan ikki hokimiyatchilik qiyofasida o‘zidan xabar bergan. Va ko‘p o‘tmay buyuk Navoiyning aql nuri bilan yoritilgan shunday ko‘rkam davlatdan asar ham, xabar ham qolmagan.

Kitob mualliflari bu hayoti dunyoda munofiqlik, hiylakorlik, ko‘mamaklik hech qachon jazosiz qolmasligi haqida mulohaza yuritar ekanlar, “Boburnoma”dan quyidagi iqtibosni keltiradilar: “ ... *Shayboniyxon avval bu kim chirkin dunyo uchun Xadichabegimni Shoh Mansur baxshi ko‘targuchiga tutturub, turluk-turluk qiyinlar qildurdi*” [6;350]

“Xuroson davlatini suvsiz silkitgan Shoh Abulg‘oziyning (Navoiy) suyukli xotini” (Sh.Hayitov va X.Barotova ifodasi) Xadichabegimning keyingi taqdiri haqida “Boburnoma”da hech qanday ma‘lumot berilmagan. “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasi mualliflarining aniqlashlaricha, Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk zamondoshi, tarixchilar amiri “Makorim ul-axloq”, “Maosir ul-muluk”, “Xulosatul – axbor fi bayon al-ahvol al-ahyor”, “Dasturul-vuzaro”, “Nomayi nomiy”, “Xabib us-siyar”, “Ravzat us-safo”, “Qonuni Humoyuniy”, “Ahborul-xayr”, “Muntahabi tarixi Vassof”, “Osorul-muluk val anbiyo”, “G‘aroyib ul-asror”, “Javohir ul-axbor” kabi qimmatli kitoblar muallifi G‘iyosiddin ibn Humomiddin (1475-1535) Xadichabegimning achchiq taqdiri xususida aniq ma‘lumotlar beradi. “Habib us-siyar”da zikr qilinshicha, Xadichabegim Hirotdan tashqariga chiqmay, Shoh Mansur Baxshi uyida turli qiynoqlarga solinib, uy mahbusligida yashaydi. 1509 yili o‘g‘li Muzaffar Husayn Mirzoning Astrabodda ekanligini eshitadi. Shayboniyxon tarafidan Hirotdan dorug‘asi (hokimi) qilib tayinlangan Jon Vafo Mirzodan ruxsat olib, o‘g‘lini ko‘rgani Astrabodga boradi. Xadichabegim Astrabodga yetib borganida, Muzaffar Husayn tuzalmaydigan kasalga muhtalo bo‘lib, o‘lim to‘shagida yotardi. U ko‘p o‘tmay vafot etadi.

Xadichabegim o‘g‘lining ta‘ziya marosimlarini o‘tkazgach, yana Hirotda qaytib keladi va Shoh Mansur uyida mahbuslikda, turli azoblar iskanjasida vafot etadi. Xadichabegimning munofiqliklari Sulton Husayn Boyqaro tomonidan kechirilgan bo‘lsa-da, ammo, taqdir hukmi bilan qilmishlariga yarasha jazoni Muhammad Shayboniy va Shoh Mansur Baxshi qo‘lidan oladi.

Shuni maxsus ta‘kidlagimiz keladiki, “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasida ko‘pchilikka ma‘lum tarixiy dalillar ham yangicha va toza sharhda, o‘ziga xos uslubda o‘quvchiga taqdim qilingan. Bu o‘rinda fikrimiz tasdig‘i uchun monografiyadan quyidagi iqtibosni keltirishni ma‘qul topdik: “Sog‘lom aql qabul qilishdan ojiz bo‘lgan bu vaxshilikni Mo‘min Mirzo yuborilgan kunning tunida tong otmasidan, biron diyonatli odam bilan hech qanday maslahatsiz, mashvaratsiz amalga oshirgan. Tongda mastlik uyqusidan uyg‘onib, o‘z qonli farmonini bekor qilgan Sulton Husayn ham, farmonni qo‘yniga solib, eng uchqur tulporini shamoldek yeldirib Ixtiyoriddin qal‘asiga yetib borgan chopar ham g‘aflatda qolgan. Ayol makri butun poytaxt - Hirotni zir titratib, qon qaqshatgan” [10;145].

Uchinchi bobning ikkinchi faslida chuqur tahlil qilingan obrazlardan yana biri Zuhrabegi og‘adir. Zuhrabegi og‘a – Sulton Abusa‘idning uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzo e‘tiborini tortgan kanizaklardan bo‘lgan. 1500 yilda Samarqand toj-taxtini Zuhrabegi Og‘aning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo boshqargan. Mirzo Bobur dunyoqarashi, nuqtayi nazari, “Boburnoma” badiiy konsepsiyasiga, matn tizimiga, har bir qahramonning badiiy strukturasi o‘z ta‘sirini o‘tkazganligi Zuhrabegi og‘a obrazi talqinida ham mualliflar tomonidan chuqur his qilingan va teran yoritilgan.

Monografiya mualliflari fikricha, Zahiriddin Muhammad Bobur Zuhrabegi Og‘a timsolidagi ikki salbiy xususiyatga o‘quvchi e‘tiborini qaratgan. Bular: bilmaslik va beaqlilik. Zuhrabegi Og‘a siyosiy vaziyatga to‘g‘ri baho bera olish narida tursin, oddiy hayot oqimini,

birinchi navbatda ko‘z o‘ngida bo‘layotgan voqealarni tushunib yetmagan. Uzoq vaqt saroy muhitida yashagan bu ayol shahzodalar o‘rtasidagi toj-taxt kurashlari, ichki nizolar, mansab-amal, martaba ilinjida yuz bergan fitna-fasod, ayovsiz kurash, qonli to‘qnashuvlardan hech qanday saboq chiqarmagan. O‘z nomusini toptash, marhum eri ruhini kamsitish bilan bir sulola orasida emas, ikki muxolif sulola o‘rtasidagi ixtilofga osongina barham bermoqchi bo‘lgan. Siyosiy savodsizligi, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata bilmaganligi uchun qattiqqo‘l va shafqatsiz Shayboniyxondan marhamat kutgan. Zahiriddin Muhammad Bobur birgina so‘z (“bilmaslik”) vositasida Zuhrabegi Og‘a shaxsiyatidagi eng og‘riqli, alamli nuqtani bexato nishonga olgan. Marhum Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning bevasi Zuhrabegi Og‘aning nodon, johil, to‘g‘ri mushohada yurita olish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, chala dumbul ayol ekanligini san’atkorona asoslagan.

Zuhrabegi Og‘a xarakteri va irodasining zaifligini maxsus ta’kidlashga xizmat qilgan ikkinchi so‘z – “beaqllik”. Monografiyadan o‘qiymiz: “Aql – insonning qudrati, ziynati. U insonni sharaflaydi, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi darajasini, maqomini belgilab beradi. Haq subhanahu taolo insonni boshqa yaratilmishlardan aql tufayli mumtoz qilgan. Hazrati inson asrlar davomida o‘zi va xalq boshiga tushishi mumkin bo‘lgan ofatni, aql kuchi bilan qaytarib kelgan. Zuhrabegi Og‘ada ana shu eng asosiy narsa – aql gavhari bo‘lmagan. Shuning uchun ham o‘zining va o‘g‘lining, elining va yurtining bo‘ynini bog‘lab, Shayboniyxon qo‘liga topshirgan” [10;166].

Monografiyaning uchinchi bobni uchinchi fasli “Begim Sulton – karam timsoli” deb atalgan. Ushbu faslda ta’kidlanishicha, Begimsulton va Begisulton “Boburnoma”da alohida-alohida timsollar sifatida talqin qilingan. Mualliflar, avvalo, bu ikki timsol nomiga sharq mumtoz poetikasi qonuniyatlari nuqtayi nazaridan munosabat bildiradilar: “Begimsulton va Begisulton ismlarining yozuvdagi va talaffuzdagi ifodasidagi farq bir “mim” harfidadir. Agar shoir yoki adib shunday kalimalardan foydalanib badiiy matn yaratsa “Badoyius – sanoyi” (Atoulloh Husayniy) sharhiga ko‘ra, badiiy mahoratning bunday namunasi tajnisi muzayyal deyiladi” [10;171].

Mazkur fasl mag‘zida Sulton Husayn Boyqaroning suluv qizi Begimsulton obrazining talqini turadi. Mualliflar Begimsulton obrazini yoritishda Mirzo Muhammad Haydar Do‘g‘latning “Tarixi Rashidiy” asaridagi ma’lumotlardan ham o‘rinli va unumli foydalanganlar. Qiyosiy-tipologik metoddan samarali foydalangan holda Begimsulton obraziga xos insoniy go‘zalliklar teran yoritilgan.

“Boburnoma” sahifalaridan ma’lumki, Hisor hokimi Xusravshoh Sulton Mahmud Mirzoning eng sodiq, eng ishonchli kishisi sifatida bolalik yillaridan o‘zi murabbiylik qilgan Samarqand podshosining o‘g‘li Sulton Ma’sud Mirzoning ko‘ziga mil torttirgan. Mazkur tarixiy haqiqat Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida quyidagicha aks ettirilgan: “Xeyli husni bor edi. Xusravshohdek badkirdor o‘zi asrag‘an va tarbiyat yetgan o‘g‘lunikim Sulton Ma’sudni ko‘ziga nashtar sanchib mayib etmish. Andin shahzodaga parvarish vajidin Sulton Husayn binni Mansur Boyqaronikim qizini berib edilar. Sulton Ma’sudni bisyor parvarish qilib erdi. Hech bir xotun bunchalik xizmat qilg‘on ermas” [2;137-138].

Mualliflar Xuroson podshosi Sulton Husayn Boyqaroning suyukli qizi Begimsulton taqdiridagi ayni achchiq haqiqatni quyidagicha tahlil qiladilar: “Birgina “Andin shahzodaga – Sulton Ma’sud Mirzoga Husan Boyqaro parvarish vajidin” ifodasi zamiriga behad teran ma’no singdirilgan. Odatda, ota qizini baxtli bo‘lishi uchun turmushga beradi. Sulton Husayn esa o‘z dilbandini baxtli bo‘lishi uchun emas, nogiron temuriy qardoshini parvarish qilishi uchun, uning majruh jismi va so‘ngan yuragiga malham bo‘lishi uchun turmushga uzatgan. Go‘zal Begimsulton bor haqiqatni anglab, bilib turib shunday nikohga rozilik bergan” [10;172].

Xullas, monografiya uchinchi bobining uchinchi faslida “Boburnoma”da nafis martabasidan ko‘ngil maqomiga ko‘tarilgan, o‘zgalarni o‘zidan afzal biladigan fatiy ayolning nafis obrazi mahorat bilan yaratilganligi mualliflar tomonidan chuqur asoslab berilgan.

Uchinchi bobning to‘rtinchi eng ixcham fasli “Mirzo Bobur va Shohbegim” deb atalgan. Monografiyada zikr qilinishicha, “Boburnoma”ning 899 yil voqealari bayoniga bag‘ishlangan qismida Bobur ona tomondan bobosi Yunusxonning xotinlaridan biri sifatida Shohbegim nomini tilga oladi. Mo‘g‘ul hukmdori Yunusxon Badaxshon shohi Sulton Muhammadning qizi Shohbegimga ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni yaxshilash maqsadida xotini Esandavlat Begimning maslahati bilan uylangan. Badaxshon hukmdorining qizi Shohbegim sag‘richi beklarining ulug‘i Sher Hojibek qizi Esandavlat Begim kabi aql-zakovatli, keng mushohadali ayol bo‘lganligi uchun kundoshlar orasida hech qachon nizo kelib chiqmagan. Yunusxonning shu ikki ayoldan tug‘ilgan yetti farzandi munosabatlarida o‘gaydorlik kuzatilmagan. Bobur Mirzo o‘zining buvisi (katta onasi) Esandavlat Begimga qanchalik yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatsa, Shohbegimga xizmat va hurmatni ham undan kam qilmaganligi monografiyada keng yoritilgan.

Monografiyada yozilishicha, o‘g‘illari Shayboniyxonga mag‘lub bo‘lganlaridan keyin kimsasiz qolgan Shohbegim o‘gay nabirasi Bobur huzuridan panoh topgan edi. Javonmard Bobur Kobulda Shohbegim istirohatda yashashi uchun Bog‘i Behishtdan so‘lim maskan qilib bergan. Bobur Mirzo tomonidan o‘ziga shuncha iltifot ko‘rsatilganiga qaramasdan, Shohbegim 1506 yilning dekabrda haqiqiy taxt egasi Hirotda bo‘lgan paytida fitna uyushtirib, saltanatni o‘zining haqiqiy nabirasi Xon Mirzoga (Sulton Vays Mirzo) olib berishiga bosh bo‘ladi. Tog‘ yo‘li orqali har qadam qo‘yganida beligacha, ko‘ksigacha bota-bota qor tepib, Hirotdan Kobulga yuz ming mashaqqat bilan yetib kelgan Mirzo Boburga sovg‘a hozirlab qo‘yadi. Davlatni va xalqni parokandalikka, tushkunlikka olib boradigan har xil bo‘xtonlarning tarqalishiga yo‘l ochib beradi.

Muvaqqat hukumat rahbari Xon Mirzo (Mirzoxon) Shohbegimning Sulton Nigorxonim ismli qizi bilan Boburning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning nikohidan tug‘ilgan. Ko‘rinadiki, “Boburnoma”da talqin qilingan begimlar, xonimlar, xotin-qizlar bir necha rishtalar orqali Mirzo Boburga kelib mustahkam bog‘langan. Marhamatli Bobur ana shu rishtalarni shartta uzib tashlashni istamagan. Barcha og‘irliklarni o‘ziga olib, qarindoshlarining hayoti va nomusini rioya qilgan. Shuncha katta xiyonatdan keyin har qanday jazoga loyiq o‘gay buvisi Shohbegimga Kobulning Tamg‘on mavzesida joylashgan serhosil yerlarni in‘om qiladi. Farzand onasiga ko‘rsatishi zarur bo‘lgan barcha xizmatlarni haddi a‘losida ado etadi.

Tahlil asosida turgan Shohbegim, Xon Mirzo, Husayn Muhammad Ko‘ragon xiyonati va uni Zahiriddin Muhammad Bobur behad bag‘rikenglik bilan kechirganligi bilan bog‘liq tarixiy haqiqatlar monografiyada sinchiklab nazardan o‘tkazilgan va chuqur tahlil qilingan.

Yuqorida ta‘kidlanganlar bilan birga “Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat (“Boburnoma” misolida)” monografiyasi yana quyidagi ilmiy yangiliklar va fazilatlariga ega:

Masalaga mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Ayolga bo‘lgan hurmat-e‘tibor – bu avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga bo‘lgan hurmat-e‘tibor ifodasidir”, – degan g‘oyasi hamda yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini kafolatli himoya qilish, oilalar barqarorligini ta‘minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishiga erishishga qaratilgan tarixiy islohotlar, o‘nlab qarorlar mohiyatidan kelib chiqib baho berilsa, monografiya mavzusining g‘oyatda dolzarbligi yorqin namoyon bo‘ladi.

## **Xulosa**

Monografiya maxsus o‘rganilmagan muammo tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqot matni mukammal shakllangan. Har bir bob, har bir fasl nazariy xulosalarga boyligi bilan adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun xizmat qiladi hamda boburshunoslikka munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Xotin-qizlar obrazining ijtimoiy qimmat kasb etishi bilan aloqador bo‘lgan ma‘naviy muhit va shaxslararo munosabatlarning badiiy talqini ishonarli fakt va dalillar hamda kuchli mantiqiy mulohazalar vositasida isbotlangan.

Monografiyada har bir obraz, tarixiy hodisa “Boburnoma” muallifi dunyoqarashi doirasida ko‘rilgan va talqin etilgan.

“Boburnoma” muallifining yuksak g‘oya va qarashlari, “Boburnoma”ning o‘ziga xos badiiy olami, xotin-qizlar obrazi misolidagi yetakchi qahramonlari va ularning ruhiyati mukammal yoritilgan.

Mualliflar Zahiriddin Muhammad Bobur, G‘iyosiddin Xondamir, Mirzo Muhammad Haydar, Muhammad Arabshoh Qatag‘on ijodlari aro tarixiy-tipologik, ijodiy-badiiy mushtaraklikni to‘g‘ri anglaganlar. Va ayni haqiqatni Qutlug‘nigor Xonim, Oqobegim, Xonzoda Begim, Begimsulton, Beka Sultonbegim obrazlarining tahlili misolida yetarli dalillay olganlar.

Monografiyada aql-idroki o‘tkir, mulohazakor, ma‘rifatli ayol oila va davlatning qudrati bo‘lgani kabi hayoti va e‘tiqodi mehr-shafqat, hikmat va ma‘rifatdan yiroq amalparast ayol xalqni parokandalikka, davlatni parchalanishga olib kelishi “Boburnoma” ma‘lumotlariga tayanib chuqur asoslangan. Mualliflar ayni masalani Xadicha Begim, Zuhrabegi Og‘a timsollarining xatti – harakatlari, muomala – munosabatlar orqali aniq va tiniq yoritishga erishganlar.

Monografiyani yozishda insonning ma‘naviy yuksalishidagi ruhiy-genetik jihatlari ham e‘tibordan soqit qilinmagan. Ollohga munojot va uning inson taqdiriga ta‘siri ushbu monografiyada ilk marta tarixiy jarayon va obrazlari mantiqidan kelib chiqib ilmiy mushohadadan o‘tkazilgan. Qalamga olingan xotin-qizlar obrazi o‘zining axloqiy-ma‘naviy go‘zalligi bilan beqiyos badiiy, emotsional ta‘sir qudratiga ega ekanligi teran dalillangan.

#### **Iqtiboslar/ References/ Kaynaklar/ Сноски:**

1. Bobur Zahiruddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. B.
2. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010.
3. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – Стр. 431.)
4. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 2 жилдлик. 2-ж. – Тошкент: Абдулла Қодирий н-даги ХМН, 2002.
5. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. – Тошкент: Юлдузча, 1990.
6. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.
7. Ҳайитов Ш. Адабий манба билан ишлаш амалиёти. – Бухоро: “Muharrir nashriyoti”, 2022.
8. Ҳайитов Ш. Алишер Навоийнинг кўнгил гулшани. – Бухоро: Бухоро давлат университети нашриёти, 2000.
9. Ҳайитов Ш. Моҳият ва бадий талқин. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2023.
10. Ҳайитов Ш., Баротова Х. Аёл ва тақдир: сабабият ва садоқат (“Бобурнома” мисолида). – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2025.

**BULLETIN OF THE  
INTERNATIONAL JOURNAL  
“TURKOLOGICAL  
RESEARCH”**

In order to implement programs and projects developed to accelerate the relationship envisaged at the summit of the Organization of Turkic States held in Samarkand, as well as to coordinate and highlight the research work carried out in the field of Turkic studies, the International Journal “Turkological Research” at Samarkand State University named after Sharof Rashidov passed the state registration. The journal is intended to publish the results of scientific research in the field of Turkic languages and dialects, the history of linguistic and literary relations of the Turkic peoples of Central Asia, the socio-cultural field. There are such headings as a young researcher, memory and our anniversaries. Articles written in Uzbek, Turkish, Russian, English and all Turkic languages are accepted.

The scientific journal is based on the decision of the Higher Attestation Commission of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan dated May 8, 2024 and numbered 354/5; It is included in the list of scientific publications that are recommended for candidates to receive the Doctor of Philosophy (PhD) and Doctor of Science (DSc) academic degrees in the fields of history and philology to publish their scientific results due to their theses.



**THE JOURNAL PUBLISHES ARTICLES  
IN THE FOLLOWING AREAS:**

- ✓ History of socio-cultural relations of the Turkic peoples;
- ✓ Research of the Turkic World;
- ✓ Dialectology of Turkic languages;
- ✓ Geopolitics of the Turkic World;
- ✓ Folklore Studies;
- ✓ Comparative Linguistics and Literary Studies;
- ✓ Literary Relations and Translation Studies.

## CONTACT ADDRESS:

### Mailing Address:

140104, University boulevard, 15,  
Samarkand, Uzbekistan,  
Research Institute of Turkology under  
Samarkand State University named after  
Sharof Rashidov

### Phone:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya2025

### Email:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Website:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article is presented on 8-10 pages;
- Article structure:
  1. The text of the article should be prepared in Times News Roman font, size 14, left: 3 cm, right: 1.5 cm, top and bottom: 2 cm; in A4 format in 1.15 intervals.
  2. The title of the article, surname, name and patronymic of the author (authors) are indicated in full and written in capital letters.
  3. Position, academic title, place of work (study), region, republic, telephone number, email address and ORCID number of the author (authors) are indicated in full.
  4. The abstract should consist of a brief content and importance of the article, results.
  5. At the beginning of each article, there should be an annotation in 2 other languages (optionally selected from Uzbek, English, Russian and Turkish) in addition to the language in which the article is written.
  6. The abstract should be no more than 120-150 words.
  7. At the bottom of the abstract, 7-10 key words should be given that illuminate the content of the article.
  8. The article should be prepared in the following form:
    - a) Introduction;
    - b) Main part;
    - c) Results and Discussions;
    - d) Conclusions;
    - e) List of literature (References) – in alphabetical order;
    - f) Citations are given in brackets in the form of the author's surname - date of publication - page (Muminov, 2020: 25);
    - g) Figures, drawings, tables, diagrams are designated in Arabic numerals as “Figure”. Signs or pointers are placed under the figure, in the next line, in the middle and highlighted in bold.
- The topic of the scientific article submitted by the author (or co-authors) must correspond to the journal's columns.
- Articles can be submitted in Uzbek, English, Russian, and all other Turkic languages
- The author(s) are responsible for the scientific validity, reliability and plagiarism of the information and evidence presented in the article;
- Articles will be considered. The journal publishes only articles recommended by experts;
- Articles not requested will not be published and will not be returned to the authors;
- Only 1 article of the author is published in 1 issue of the journal.

## “TURKOLOGIK TADQIQOTLAR” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy-ma’rifiy, ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan siyosat, Turkiy Davlatlar Tashkilotining Samarqanda o‘tkazilgan sammitida ko‘zda tutilgan o‘zaro aloqalarni jadallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish hamda turkologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va yoritish maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Turkologik tadqiqotlar” xalqaro jurnali ta’sis etildi. Jurnal turkiy til va shevalar, Markaziy Osiyo turkiy xalqlari lisoniy va adabiy aloqalari tarixi, ijtimoiy-madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini e’lon qilishga mo’ljallangan. Jurnalda muharrir minbari, tadqiqotlar, ilmiy axborot, taqriz va e’tirof, ilmiy anjuman, yosh tadqiqotchi, xotira, yubilyarlarimiz kabi ruknlar mavjud. O‘zbek, turk, rus, ingliz va barcha turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Ilmiy jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning 2024-yil 8-maydagi 354/5-sonli rayosat qarori asosida tarix, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



### JURNAL QUIYIDAGI YO‘NALISHLARDAGI MAQOLALARNI NASHR QILADI:

- ✓ Turkiy xalqlarning ijtimoiy-madaniy aloqalari tarixi
- ✓ Turk dunyosi tadqiqotlari
- ✓ Turkiy tillar dialektologiya
- ✓ Folklorshunoslik
- ✓ Qiyosiy tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- ✓ Adabiy aloqalar va tarjimashunoslik.

## MUROJAAT UCHUN MANZIL:

### Pochta manzili:

140104, Universitet xiyoboni, 15-uy,  
Samarqand, O‘zbekiston,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti huzuridagi  
Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti

### Telefon:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:


@turkologiya2025

### Elektron pochta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Veb-sayt:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 8-10 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- Maqolaning tarkibiy tuzilishi:
- 1. Maqola matni Times News Roman shriftida, 14 kattalikda, chap: 3 sm, o‘ng: 1,5 sm, yuqori va quyi: 2 sm; 1,5 intervalda, A4 shaklida tayyorlanishi lozim.
- 2. Maqola sarlavhasi, muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasmi to‘liq holatda katta harflar bilan yozilishi kerak.
- 3. Muallif(lar)ning lavozimi, ilmiy unvoni, ish (o‘qish) joylari, viloyat, Respublika, telefon raqami, elektron pochta manzili va ORCID raqqami to‘liq keltirilishi kerak.
- 4. Annotatsiya, maqolaning qisqacha mazmun va ahamiyati, natijalardan iborat bo‘lishi lozim.
- 5. Har bir maqola boshida maqola yozilgan tildan tashqari yana 2 tilda (o‘zbek, ingliz, rus va turk tillaridan ixtiyoriy ravishda tanlanadi) annotatsiya bo‘lishi lozim.
- 6. Annotatsiya 120-150 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan shaklda bo‘lishi kerak.
- 7. Annotatsiyaning pastki qismida maqola mazmunini yorituvchi 7-10 ta tayanch so‘zlar keltirilishi kerak.
- 8. Maqola quyidagi shaklda tayyorlanishi kerak:
  - a) Kirish (Introduction);
  - b) Asosiy qism (Main part);
  - c) Natijalar va muhokama (Results and Discussions);
  - d) Xulosalar (Conclusions);
  - e) Adabiyotlar (References) – alifbo tartibida keltiriladi;
  - f) Havola(snoskalar)lar qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi (Mo‘minov, 2020: 25) shaklida keltiriladi;
  - g) Rasm, chizma, jadval, diagrammalar «Rasm» deb arab raqamlari bilan qayd etiladi. Belgi yoki ishoralar – rasm ostida, keyingi qatorda, o‘rtada joylashtiriladi va qoraytirilgan shrift bilan belgilanadi.
- Muallif (yoki hammualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi jurnal ruknlariga mos kelishi shart.
- Maqolalar o‘zbek, ingliz, rus va barcha turkiy tillarda taqdim etilishi mumkin.
- Maqolada keltirilgan ma’lumot va dalillarning ilmiy asoslanganligi, ishonchli va ko‘chirmachilik holatlari uchun muallif(lar) mas’uldir;
- Maqolalar ekspertiza qilinadi. Ekspertlar tomonidan tavsiya etilgan maqolalargina jurnalda chop etiladi;
- Tavsiya etilmagan maqolalar chop etilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi;
- Jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

**БЮЛЛЕТЕНЬ  
МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА  
“ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”**

В целях реализации программ и проектов, разработанных для ускорения взаимоотношений, предусмотренных на состоявшемся в Самарканде саммите Организации Тюркских Государств, а также координации и освещения научно-исследовательской работы, проводимой в области тюркологии, Международный журнал Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова «Тюркологические исследования» прошел государственную регистрацию. Журнал предназначен для публикации результатов научно-исследовательских работ в области тюркских языков и диалектов, истории языковых и литературных связей тюркских народов Средней Азии, социокультурной области. Есть такие рубрики, как молодой исследователь, память и наши юбилеи. Принимаются статьи, написанные на узбекском, турецком, русском, английском и всех тюркских языках.

Научный журнал на основании решения Высшей аттестационной комиссии (ВАК) Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 8 мая 2024 года под номером 354/5; Он включен в перечень научных изданий, рекомендуемых кандидатам на получение ученых степеней доктора философии (PhD) и доктора наук (DSc) в области истории и филологии для публикации своих научных результатов по своим диссертациям.



**В ЖУРНАЛЕ ПУБЛИКУЮТСЯ  
СТАТЬИ ПО СЛЕДУЮЩИМ  
НАПРАВЛЕНИЯМ:**

- ✓ История социально-культурных отношений тюркских народов;
- ✓ Исследования тюркского мира;
- ✓ Диалектология тюркских языков;
- ✓ Геополитика тюркского мира;
- ✓ Изучение фольклора;
- ✓ Сравнительное языкознание и литературоведение;
- ✓ Литературные отношения и переводоведение.

## КОНТАКТНЫЙ АДРЕС:

### Почтовый адрес:

140104, Университетский бульвар,  
15, город Самарканд, Узбекистан,  
Научно-исследовательский  
институт Тюркологии при  
Самаркандском Государственном  
Университете имени Шарофа  
Рашидова

### Телефон:

+998 91 527 68 22

+998 99 596 35 69

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya2025

### Электронная почта:

turkologiya.samdu@gmail.com

### Веб-сайт:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ:

- К публикации принимаются статьи объемом 8-10 страниц;
- Структура статьи:
  1. Текст статьи должен быть выполнен шрифтом Times News Roman, размером 14 пунктов, слева: 3 см, справа: 1,5 см, сверху и внизу: 2 см; с межстрочным интервалом 1,15, формат листа А4.
  2. Название статьи, фамилия, имя и отчество автора(ов) должны быть написаны заглавными буквами в полном регистре.
  3. Должность, ученое звание, места работы(учебы), регион, Республика, номер телефона, адрес электронной почты и ORCID-номер автора(ов) должны быть указаны полностью.
  4. Аннотация должна состоять из краткого содержания и важности статьи, результатов.
  5. В начале каждой статьи, помимо языка, на котором написана статья, должна быть аннотация на 2-х других языках (на выбор – узбекский, английский, русский и турецкий).
  6. Аннотация должна содержать не более 120-150 слов.
  7. Внизу аннотации должно быть 7-10 ключевых слов, освещающих содержание статьи.
  8. Статья должна быть подготовлена в виде:
    - a) Вступление (Introduction);
    - b) Основная часть (Main part);
    - c) Результаты и обсуждение (Results and Discussions);
    - d) Выводы (Conclusions);
    - e) Литература (References) – в алфавитном порядке
    - f) Ссылка(сноски) приводится в скобках в виде фамилии автора – дата публикации – страница (Муминов, 2020: 25);
    - g) Рисунки, чертежи, таблицы, схемы нумеруются арабскими цифрами и обозначаются как «Рисунок». Знаки или указатели размещают под рисунком, в следующей строке, посередине и выделяют жирным шрифтом.
- Тема научной статьи, представленной автором (или соавторами), должна соответствовать рубрикам журнала.
- Статьи могут быть представлены на узбекском, английском, русском и всех других тюркских языках.
- Автор(ы) несут ответственность за научную обоснованность, достоверность и плагиат информации и доказательств, представленных в статье;
- Статьи рецензируются. В журнале публикуются только статьи, рекомендованные экспертами;
- Нерекондованные статьи не публикуются и не возвращаются авторам;

## “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” DERGİSİNİN BÜLTENİ

Özbekistan Cumhuriyeti devletinin sosyal-eğitimsel ve bilimsel gelişme politikasının başarılı şekilde uygulanmasına yardımcı olmak amacıyla, Semerkant'ta düzenlenen Türk Devletleri Teşkilatının zirvesinde öngörülen karşılıklı ilişkilerin hızlandırılması için geliştirilen program ve projeleri uygulamak, bilimsel çalışmaları koordine etmek, Türkoloji alanında yürütülen araştırma çalışmaları Şeraf Reşidov adına Semerkant Devlet Üniversitesi, Uluslararası “Türkoloji Araştırmaları” dergisini tescil etmiştir. Dergi, Türk dili ve lehçeleri, Orta Asya Türk topluluklarının dil ve edebiyat ilişkileri tarihi, sosyo-kültürel alanlardaki bilimsel ve araştırma çalışmalarının sonuçlarını yayınlamayı amaçlamaktadır. Dergimizde editör kürsüsü, araştırma, bilim dünyasından, inceleme ve tanıma, bilimsel konferans, genç araştırmacı, hatıra, yıldönümleri gibi sütunlar yer almaktadır. Özbekçe, Türkçe, Rusça, İngilizce ve tüm Türk lehçelerinde yazılmış makaleler kabul edilmektedir.

Bilimsel dergi, Özbekistan Cumhuriyeti Yükseköğretim, Bilim ve İnovasyon Bakanlığı'na bağlı Yüksek Kabul Komisyonu'nun 8 Mayıs 2024 tarihli ve 354/5 sayılı kararına esasen; tarih, filoloji alanlarında Felsefe Doktoru (Doktora) ve Bilim Doktoru (DSc) akademik derecesini almaya aday kişilerin tezleri dolayısıyla bilimsel sonuçlarını yayınlaması tavsiye edilen ilmî yayınlar listesine dâhil edilmiştir.



### DERGİ AŞAĞIDAKİ ALANLARDA MAKALELER YAYINLAMAKTADIR:

- ✓ Türk Dünyasındaki sosyo-kültürel ilişkilerin tarihi;
- ✓ Türk Dünyası araştırmaları;
- ✓ Türk Lehçeleri diyalektolojisi;
- ✓ Türk Dünyasının jeopolitiği;
- ✓ Folklor çalışmaları;
- ✓ Karşılaştırmalı dilbilim ve edebiyat çalışmaları;
- ✓ Edebi ilişkiler ve çeviri çalışmaları.

## İLETİŞİM ADRESİ:

### Posta adresi:

140104, Üniversite Bulvarı, 15,  
Semerkant şehri, Özbekistan, Şeraf  
Reşidov adına Semerkant Devlet  
Üniversitesine bağlı Türkoloji  
Araştırmaları Enstitüsü

### Telefon:

+998 99 582 93 81

+998 97 911 93 81

### Telegram ID:

@turkologiya2025

### E-posta:

turkologiya.samdu@gmail.com

### İnternet sitesi:

<https://turkologiya.samdu.uz>



## MAKALE YAZIM KURALLARI:

- Makale 8-10 sayfada sunulur;
- Makale'nin yapısı:
  1. Makale metni Times New Roman yazı tipinde, 14 punto büyüklükte, sol kenarından 3 cm'lik, sağ kenarından 1,5 cm'lik, üst ve alt kenarından 2 cm'lik boşluk bırakılarak, tek sütun olarak, 1,15 satır aralığında, A4 boyutunda hazırlanmalıdır.
  2. Makalenin başlığı, yazar(lar)ın soyadı, adı ve baba adı tam olarak büyük harflerle yazılmalıdır.
  3. Yazar(lar)ın pozisyonu, akademik ünvanı, çalıştığı (öğrendiği) yer, bölgesi, cumhuriyeti, telefon numarası, e-posta adresi ve ORCID numarası eksiksiz olarak verilmeli.
  4. Özet, makalenin amacını, önemli bulgularını ve sonuçlarını içermelidir.
  5. Her makalenin başında, makalenin yazıldığı dilin yanı sıra 2 dilde de (isteğe bağlı olarak Özbekçe, İngilizce, Rusça ve Türkçe arasından seçilecek) açıklama bulunmalıdır.
  6. Özet, 120-150 sözcüğü geçmeyecek şekilde yazılmalıdır.
  7. Özeti alt kısmında makalenin içeriğini tanımlayacak en az 7, en fazla 10 anahtar kelimeye yer verilmelidir.
  8. Makale, aşağıdaki formatda hazırlanmalıdır:
    - a) Giriş (Introduction);
    - b) Ana bölüm (Main part);
    - c) Sonuçlar ve tartışma (Results and Discussions);
    - d) Sonuçlar (Conclusions);
    - e) Kaynakça (References) alfabetik olarak sıralanmalıdır;
    - f) Bağlantılar (dipnotlar) yazarın soyadı - yayın tarihi - sayfa şeklinde parantez içinde verilecektir (Muminov, 2020: 25);
    - g) Resim, çizim, tablo, diyagramlar “Resim” olarak Arap rakamları ile kaydedilir. İşaretler resmin altına, bir sonraki satıra, ortaya yerleştirilir ve koyu yazılır.
- Yazarın (veya ortak yazarların) sunduğu bilimsel makalenin konusu dergi sütunlarıyla örtüşmelidir.
- Makaleler Özbekçe, İngilizce, Rusça ve tüm Türk dillerinde gönderilebilir.
- Makalede sunulan bilgi ve kanıtların bilimsel dayanağı, güvenilirliği ve intihalinden yazar(lar) sorumludur.
- Makaleler hakemli olacaktır. Dergide sadece uzmanlar tarafından tavsiye edilen makaleler yayımlanır.
- Talep edilmeyen yazılar yayınlanmayacak ve yazarlarına iade edilmeyecektir.
- Derginin 1 sayısında yazarın sadece 1 makalesi yer alacaktır.

---

# TURKOLOGIK TADQIQOTLAR

XALQARO ILMIIY JURNALI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF “TURKOLOGICAL  
RESEARCH”

ULUSLARARASI “TÜRKOLOJİ ARAŞTIRMALARI” BİLİMSEL  
DERGİSİ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ТЮРКОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ”

Muharrir:

Musahhih va texnik muharrir:

Norxo‘ja Choriyev

Rahmatulloh Shokirov

2026-yil 24-martda tahririy-nashriyot bo‘limiga qabul qilindi.

2026-yil 27-martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Qog‘oz bichimi 60x84.1/16. «Times New Roman» garniturasini.

Offset qog‘ozini. Shartli bosma tabog‘i –15,4.

Adadi 15 nusxa. Buyurtma №806

---

SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISSN 2992-9229



9

772992

922004